

# SURXON TONGI

2026-yil  
11-mart  
(chorshanba)  
10-son  
(17 994)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

ISLOHOTLAR  
SAMARASI

## KECHAGIDAN KESKIN FARQ QILADI

**Termiz shahrida so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lami buniyodkorlik ishlari nafaqat shaharning tashqi qiyofasini yangilamoqda, balki aholi farovonligi va bandligini ta'minlashga xizmat qiladigan yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ham yaratmoqda.**



Turarjoylar, savdo markazlari va sanoat obyektlari qurilishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilmoqda. Muhimi, mazkur obyektlarda qurilish jarayonlari qat'iy nazorat ostida olib borilayotgani kelgusida ularning uzoq yillar davomida xavfsiz va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Termiz shahrining "Surxon sohili" mahallasida, xalq orasida "taxta bozori" deb ataladigan hudud yaqinida tashkil etilayotgan yangi "temirchilik klasteri" ana shunday istiqbolli loyihalardan biridir. Temirchilik mahsulotlarini

ishlab chiqarish va qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan ushbu majmua ishga tushirilgach, yuzlab yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Mazkur loyiha nafaqat aholi bandligini ta'minlaydi, balki qurilish va sanoat loyihalari uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali shahar iqtisodiyotiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

E'tiborlisi, klaster barpo etilayotgan hudud ilgari qarovsiz qamishzor bo'lib, undan na iqtisodiy samara va na soliq tushumi mavjud edi. Yaqin atrofdagi joylashgan eski bozor ham yillar davomida deyarli o'zgar-may qolgan, tadbirkorlar va xaridorlar uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan edi. Yangi loyiha aynan ushbu hudud qiyofasini tubdan o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Loyiha doirasida temirchilik yo'nalishida faoliyat yurituvchi zamonaviy savdo va ishlab chiqarish maydonlari barpo etiladi. Bu yerda yarimtayyor mahsulotlar qayta ishlanib, tayyor mahsulot holatiga keltiriladi hamda shu hududning o'zida sotuvga chiqariladi.

— Umumiy bozor qurilish maydoni 1,28 gektarni tashkil etadi, — deydi ish boshqaruvchi Jaloliddin Tursunov. — Savdo-qurilish majmuasining ichki qismiga yuk mashinalari kirib borishi, ikkinchi qavatga yuklarni ko'tarish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bozor 6 ta blokdan iborat bo'lib, 130 dan ortiq do'kon qurilishi rejalashtirilgan.

Natijada zamonaviy infratuzilmaga ega yangi savdo majmuasida 150 dan ortiq yangi

ish o'rnini yaratilishi ko'zda tutilgan. Ayni paytda hudud infratuzilmasini yaxshilash, muhandislik tarmoqlarini tortish, yo'l va kommunikatsiyalarni tartibga keltirish ishlari izchil davom etmoqda.

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov "Surxon sanoat qurilish" kompaniyasi tomonidan barpo etilayotgan temirchilik klasteri qurilish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Jarayon davomida ayrim ishlar loyiha grafigidan ortda qolayotgani qayd etildi. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratilishining kechikishiga sabab bo'layotgani tanqid qilindi. Mas'ullarga loyiha ijrochilari bilan birgalikda qo'shimcha kuch va resurslarni jalb etib, qurilish ishlari jadallashtirish topshirig'i berildi.

Keyingi manzilda viloyat rahbari "Yangi Termiz City" majmuasida olib borilayotgan qurilish ishlari bilan ham tanishdi. Bu hududda turar joylar, tijorat va ijtimoiy obyektlardan iborat zamonaviy shahar majmuasi barpo etilmoqda. Mutasaddilar tomonidan taqdim

etilgan ma'lumotga ko'ra, 2026-yilda 123 ta ko'p qavatli turarjoy qurilishi rejalashtirilgan.

— Bu yerda 16 qavatli turar joy binolarini barpo etmoqdami, — deydi bosh muhandis Naci Peker. — Qurilish jarayonida, eng avvalo, sifat masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Binolar mustahkam poydevor asosida barpo etilmoqda. Maqsadimiz o'zbek va turk mutaxassislari hamkorligida shaharda zamonaviy, qulay va xavfsiz uy-joylar qurishdir.

Bugungi buniyodkorlik ishlari Termizning kechagi manzarasi bilan keskin farq qiladi. Avvallari qarovsiz hududlar, eskirgan savdo joylari va yetarli infratuzilmaga ega bo'lmagan bozorlar mavjud bo'lgan bo'lsa, bugun ularning o'rnida zamonaviy savdo majmualari, ko'p qavatli uylar va ishlab chiqarish klasterlari qad rostlamoqda.

Bu jarayon shahar iqtisodiyotini faollashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Viloyat rahbari qurilish ishlari bilan tanishish jarayonida ayrim muammolarga ham to'xtaldi.

Xususan, sanoat va qurilish obyektlarida yuk mashinalarining ortiqcha yuklama bilan harakatlanishi shahar yo'llari holatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani tanqid qilindi. Shuningdek, ayrim obyektlar xususiyashtirish jarayonlaridagi kamchiliklar sabab hali ham foydalanilmayotgani, investitsiya majburiyatlari to'liq bajarilmagani natijasida rejalashtirilgan ish o'rinlari yaratilmayotgani qayd etildi.

Mas'ullarga bir hafta muddatda taqdim etilgan loyihalardagi kamchiliklarni bartaraf etish, xususiyashtirish jarayonlarida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish hamda bo'sh turgan obyektlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha aniq choralar ko'rish vazifasi yuklatildi.

Termizda amalga oshirilayotgan loyihalar shahar taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bermoqda. Qamishzor va qarovsiz hududlar o'rnida ishlab chiqarish klasterlari, eski savdo maydonlari o'rnida zamonaviy bozorlar, yangi turar joy massivlari paydo bo'layotgani Termizning kelajakdagi iqtisodiy salohiyati va urbanistik qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda.

"Surxon tongi"

## VOHA BO'YLAB

**JARQO'RG'ON o'g'loni Bobur Yusupov Turkiyaning Antaliya shahrida dzyudo bo'yicha kadetlar o'rtasida "Millennium Team Cadet European Cup 2026" xalqaro turnirining birinchi kungi bahslarida ulkan muvaffaqiyatga erishdi. U 55 kilogramm vazn toifasida tatamiga chiqib, barcha raqiblarini mag'lub etdi va musobaqa chempioni bo'ldi.**

**MUZRABOT TUMANIDAGI 3-son umumta'lim maktabining 180 o'rinli yangi binosi qayta qurilib foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, tumanda yana 6 ta umumta'lim maktabi binosi rekonstruksiya qilinib, 9 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish ishlari amalga oshirilayotir.**

**OLTINSOY TUMANIDAGI 1-sonli umumta'lim maktabida zamonaviy muhandislik laboratoriyasi tashkil etildi. Unda zamonaviy texnik jihozlar, tajriba o'tkazish uchun zarur uskunalar hamda amaliy mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan muhit bor. Mazkur laboratoriya o'quvchilarning texnik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni muhandislik, texnologiya hamda robototexnika yo'nalishlariga qiziqtirishga xizmat qiladi.**

**TERMIZ davlat pedagogika instituti talabalarini uchun zamonaviy qulayliklarga ega 400 o'rinli yangi turar joy binosi foydalanishga topshirildi. Termiz tumanidagi "Yangi O'zbekiston" massivi hududida qad rostlagan besh qavatli binoda talaba-yoshlar uchun zarur sharoit yaratilgan. Boy kitob fondiga ega kutubxona, fitnes zali, tikuvchilik, ma'naviyat va boshqa xizmat ko'rsatish xonalari barpo etilgan.**

**TERMIZ shahridagi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseyida harbiy qismlarga maxsus texnikalar topshirildi.**

"Surxon tongi"

## DENOV — HINDISTON: ILM-FAN YO'LIDA YANGI QADAMLAR

HAMKORLIK



Shu nuqtayi nazardan Hindistonning nufuzli ta'lim muassasalari vakillaridan iborat delegatsiyaning Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrifi muhim voqealardan biri bo'ldi.

Hindistonning Indira Gandi nomidagi qishloq xo'jaligi universiteti rektori Girish K. Chandel, agrobiznes boshqaruv bo'limi mudiri Xulas Patxak, Menegment ta'lim va taraqqiyot instituti vitse-prezidenti Lalit Aggarval hamda Ramakrishna yuqori

o'rta ta'lim maktabi direktori Mamata Aggarvallardan iborat delegatsiya institut faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Uchrashuv davomida ta'lim va ilm-fan sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, amaliy hamkorlikni kengaytirish hamda o'zaro tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

Mehmonlar institutda kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni, ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari, zamonaviy laboratoriyalar hamda

o'quv infratuzilmasi bilan tanishdi. Xususan, o'quv laboratoriyalarida olib borilayotgan amaliy mashg'ulotlar, innovatsion ishlanmalar va talabalarning ilmiy izlanishlari delegatsiya a'zolarida katta qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, institut huzurida faoliyat yuritayotgan Hind o'quv markazi taqdimoti o'tkazildi. Unda markaz doirasida amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari, til va madaniyat almashinuvi loyihalari hamda xalqaro sertifikatlash

imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Tomonlar markaz faoliyatini yanada kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish bo'yicha fikr almashdi.

Delegatsiya a'zolari institutda tashkil etilgan ilmiy-amaliy seminar ham ishtirok etdi. Unda agrobiznesni rivojlantirish, zamonaviy menajment yondashuvlari, pedagogik innovatsiyalar hamda raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish masalalari muhokama

qilindi. Professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi yo'lga qo'yish, qo'shma ilmiy loyihalar hamda xalqaro grant dasturlarida birgalikda ishtirok etish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dunyoning qator davlatlaridagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatgan. O'tgan o'quv yilida talabalar Turkiya, Indoneziya va Rossiya Federatsiyasida akademik mobilik

asosida ta'lim oldi. Joriy yilda esa yana bir guruh talabalar xorijiy universitetlarda o'qishni davom ettirmoqda.

— Institutda yaratilgan zamonaviy ta'lim muhiti, ilmiy salohiyat va yoshlarning intilishi bizda katta taassurot qoldirdi, — deydi Indira Gandi nomidagi qishloq xo'jaligi universiteti rektori Girish K. Chandel. — Ayniqsa, agrar sohadagi amaliy yondashuv va innovatsion ishlanmalar hamkorlikni yanada chuqurlashtirishimiz

uchun mustahkam asos bo'ladi. Tashrif yakunida mehmonlar talabalar uchun mahorat darslari o'tkazdi, shuningdek, vohaning boy tarixi va madaniy merosi bilan tanishdi. Ushbu tashrif ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi ilmiy va akademik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda.

**Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi xalqaro hamkorlik ilm-fan taraqqiyoti, zamonaviy bilim va tajribalarni almashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, agrar soha, menejment va pedagogika yo'nalishlarida ilg'or tajribalarni o'rganish mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.**





IFTIXOR

# YUKSAK TUYG'UNING AMALIY IFODASI

**Vatan — inson uchun eng muqaddas maskan, uning har bir qarich tuprog'i ko'zga to'tiyo, har bir yutug'i esa qalbga iftixordir. Bugungi Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lida dadil odimlar ekan, bu jarayonda davlat rahbarining hududlarga tashrifi va xalq bilan yuzma-yuz muloqoti islohotlarning amaliy samarasini ta'minlamoqda.**

Xususan, Prezidentimizning viloyatimizga tashrifi vohaliklar hayotida yangi sahifa ochgan tarixiy voqea bo'ldi.

## JANUBIY DARVOZA: ULKAN SALOHİYAT VA STRATEGIK AHAMIYAT

Surxon vohasi — nafaqat O'zbekistonning eng janubiy hududi, balki boy tabiiy resurslari, qadimiy Termiz shahri va mehnatkash xalqi bilan ajralib turuvchi strategik maskandir. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan bu zamin bugun ham mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi.

Prezident tashrifi davomida viloyatimiz mavjud salohiyatning samarali foydalanish, yangi investitsiyalarni jalb qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Yangi korxonalar ishga tushirilishi yuzlab ish o'rinlari yaratilishiga, bu esa o'z navbatida aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

## IQTISODIY O'SISH VA IJTIMOY ISLOHOTLAR UYG'UNLIGI

Viloyat iqtisodiyotining drayveri hisoblangan qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, suv resurslarini tejash va eksportbop mahsulotlar yetishtirish masalasi tashrifning diqqat markazida bo'ldi. Shuningdek, ijtimoiy sohadagi islohotlar ham e'tibordan chetda qolgan yo'q:

**Zamonaviy ta'lim va tibbiyot:** Yangi maktablar, bog'chalar va shifoxonalar faoliyati ko'zdan kechirildi.  
**Yoshlar va ayollar qo'llab-quvvatlovi:** Startap loyihalarni

rivojlantirish va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha yangi imtiyozlar belgilandi.

## TINCHLIK — BARQAROR TARAQQIYOT ASOSI

Chegara hududi sifatida Surxondaryo mamlakatimiz xavfsizligida muhim rol o'ynaydi. Davlat rahbari tomonidan hududda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalariga urg'u berilgani bejiz emas. Zero, barqarorlik bor joydagina yuksak taraqqiyot bo'ladi.

## XALQARO E'TIROF VA ICHKI ISHONCH

Prezident tashrifi vohaliklar qalbidagi "harakat uchqunini" uyg'otdi. Yoshlarning ilm-fan va kasb-hunar yo'lidagi intilishi, xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlari "Vatan — faxrim va iftixorim" degan yuksak tuyg'uning amaliy ifodasidir. Bugun Surxon ahlari har qachongidan ham jipslashgan holda, o'z kelajagi va Vatani ravnaqi yo'lida belni mahkam bog'lab mehnat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tashrif nafaqat hududni rivojlantirishga kuchli turtki berdi, balki davlat va xalq o'rtasidagi ishonchni yanada mustahkamladi. Yangi O'zbekistonning har bir qarich yerida davom etayotgan bunyodkorlik ishlari biz uchun cheksiz g'urur manbayidir.

**Bibixol KARIMOVA,** Termiz davlat universiteti dotsenti, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi deputati

Opalarning kunda-kunora pedagog sifatida e'tirof etilishi esa quvonchingga quvonch qo'shish asnosida seni ham bu muqaddas kasbga mahliyo etadi, hayotining har bir lahzasini shu kasbning zalvari-yu zahmatiga esh etasan... Bari beixtiyor kechadi. Hilola Eshquvvatova tabiatni tirishqoq, kirishimli, samimiy, bolajon. Uning o'ziga xosligi ham shunda. Maqsadlari sari qat'iy odimlaydigan chekinmas Hilola avvaliga ijod bilan hayotini bog'lashni istadi. Hali xat-savodi chiqmay, she'riyatga oshno tutindi. She'rlar bita boshladi, uning bu iste'dodini payqagan ota-onasi qizining qarorini bola yoshidayoq hurmatladi, rag'batlantirdi. O'zi ustozlarning etagini tutib komillashgan uying ulug'lari Hilolaning ham har maqomga yo'rg'alashini istamadi, ijodda ham ustoz

yangilikka o'ch jamoasiga yangi nafas bo'lib qo'shildi. Hech kimdan ayro emasdi, har kimdan nimadir o'rganishda band bo'ldi. Qalbidagi og'riqlar asta-sekin unutila boshladi. U bolalarni sevd, tarbiya berdi, ingliz tilidagi bilimlarini boyitish uchun o'qib izlandi, bilimini bekorga sarf etmadi, bolalarning ilmi oshib, bog'cha yoshidanoq til o'rganish layoqati shakllanishi uchun harakat qildi.

Hilola Eshquvvatova universitetda o'qish istagidan voz kechmadi, ishdan bo'sh vaqtlarida o'qiganlarini takrorlashdan erinmadi. Kunduzi bolalar shovqinidan kuch oldi, tunlari orzusi ro'yobi uchun bedor bo'ldi. Hilola bu safar o'qishga kirki.

Termiz davlat universitetiga o'qishga kirish qiyin bo'lgan yillarning o'ziga xos gashtini totib ko'rgan Hilola bor e'tiborini tahsil olishga qaratishni istadi. Ammo bog'chadagi samarali faoliyati sabab uni uzoqlashtirish ulkan yo'qotish edi, fidoyi kadrlarning istiqbolli ish uslubi MTT ota-onalarini mamnun etgandi. Shu bois Hilola ingliz tilidan

anglashiladigan vaziyatlarni yarata olishingiz lozim. Shiddatli animatsion dasturlar bilan katta bo'layotgan avlod uchun ideal shaxsga aylanmas ekansiz, shunchaki faoliyatizing havoga singiganday gap, xolos.

Darhaqiqat, hali go'dakligidanoq smartfonlarning funksiyalari bilan tanish avlodga munosib bo'la olmasangiz, uning masxarasiga ham tayyor turavering. Hilolaning fikricha, pedagoglar ideal bo'lishga majburlar. 2024-yilda o'zi faoliyat boshlagan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga direktorlik qila boshlagan Hilola Eshquvvatova yillar davomida shakllangan ilmni, ko'nikma va tajribasini amaliyotga safarbar etdi. Faoliyatining ilk kunlaridanoq ota-onalar bilan mustahkam aloqa o'rnatdi, bog'cha tarbiyachi, o'qituvchilarining ilmiy jihatdan o'sishi uchun sharoit yaratdi.

Bolalarning ko'ngliga yo'l topish borasida anchagina zukko qahramonimiz o'z tajribasini ommalashtirdi. Endi bolalar bog'chani majburiyat deb bilishmaydi, ikkinchi

ta'lim tashkiloti direktori sifatidagi faoliyati qisqa muddat ichida e'tirof etildi. Yurtimizda xotin-qizlarning ta'limi, ularning kasbiy va ilmiy faoliyat yo'nalishidagi o'sishi uchun keng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilayotganidan munosib foydalana olgan Hilola o'zining ijodiy ishlari, ilmiy izlanishlari va mehnat faoliyati orqali xalqaro maydonda ham o'z o'rnini topdi.

Turkiyaning Alaniya shahrida "Baygench" nashriyoti hamda O'zbekistondagi "Shine" qizlar akademiyasi hamkorligida tashkil etilgan xalqaro konferensiya doirasida "So'zlar Dansi: O'zbek Kizlarining Yaratilgan chalishmalari" (So'zlar raqsi: O'zbek qizlarining ijodiy ishlari) nomli to'plamda turli sohadarga faoliyat yuritayotgan iqtidorli va ilhomboxsh o'zbek xotin-qizlarining ijodiy ishlari jamlangan bo'lib, unda Hilola Eshquvvatovaning ham ijodiy ishlari o'rini olganligi qahramonimizning turk tilini qisqa fursatda o'rganishi uchun sabab bo'ldi deya olamiz. Hozirda arab tilining bor go'zalligini his etishni



**Oilaviy pedagoglar-u bola ruhiyati bilimdonlari davrasida ulg'ayishning ham o'zi bo'lmaydi. Atofingizdagi hamma dono, ideal deb bilishga tanlov ko'p, havas qilaman desang, hammasi bir-biridan ajib. Onam desang, qalban yaqining otang ham qo'llab-quvvatlashda yetakchi.**

# TAKROR-TAKROR KASHF ETILAR U... TA'LIM



bo'lsin deb kitoblarga hamroh etdi, ijodiy to'garaklarda o'z ustida ishlashi uchun sharoit yaratishdi. Hilolaning she'rlari maktab yillaridayoq tadbirlarda o'qildi... Shu havas bilan ketma-ket "Jannat o'lkam", "Anjir ifori" singari to'plamlari nashr etildi. Uydagilarning motivatsiyasi uning iste'dodini ham sayqalladi, ulg'ayirdi.

Yigirmaning ostonasida Hilola onasining qo'llab-quvvatlashiga yanada ko'proq ehtiyoj seza boshladi. Chunki universitetga o'qishga kira olmagan bo'is tushkunlik uni qamrab ola boshladi, ijodkorona ruhiyat uni hammadan ajratib yanada g'amginlik botqog'iga botirib qo'ydi. Ich-ichidan kurashishga kuch to'play turib, repetitorga qatnash uchun o'zi pul topmoqchiligi haqida onasiga aytib ko'rdi. Uni chalg'ishini istagan ona ham Hilolaning ishlashiga ruxsat berdi.

## "TARBIYA — KASBIMGA AYLANDI"

2014-yilda Hilola Termiz tumanidagi 8-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi sifatida ish boshladi. Modelyerlik, ijodga hamohanglik kabi qobiliyatlari qo'l kelib, faoliyati bog'chadagi bolalarning sevimlisi bo'lishiga sabab bo'ldi. Hilola bog'chani

saboq bera boshladi, o'qishidan bo'sh vaqtlari sevimli bolajonlarga ziyo ulashdi. Shu asnoda bog'chada uslubchi bo'lib ham ishladi.

## BOLANING ONGI BAND, QALBI BO'SH...

Bugungi pedagogikaning asosiy muammosi onga ta'sir qilish choralarini izlayotgan tadqiqotchilarning ko'rsatmalariga asoslanishdan o'zga narsa emas. Rivojlangan ilmiy salohiyat muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, bolani hayratlantirishning o'zi bo'lmaydi. Yuksak texnologiyalarning cheksiz imkoniyatlari bola tasavvurini boyitishdan ko'ra uning ong-u shuurini ham band etayotir. Demakki, tafakkur qilishdagi o'zgarishlar pedagoglarga yanada ko'proq izlanish majburiyatini yuklamoqda. Bolaning qalbidagi bo'shliq bor: qachonki sevimli bo'lsangiz, uning hayotida o'rin egallasangizgina so'zingiz uning hayot tarziga ta'sir etadi, amallarida aks etadi... Hilolaning pedagog sifatidagi 10 yillik faoliyati anglatgan haqiqat shu. U bola bilan dildan suhbatlashadi, yurak-yuragiga singadigan muloyimlik bilan dillashadi.

— O'z ustingizda ishlash bugungi pedagogikaning zarurati, — deydi Hilola Eshquvvatova. — Ustozlik aktyorlik san'ati, mahorati va qobiliyatidan tarkib topishi lozim. Bolaning fe'l-atvori, dunyoqarashidan

uyulari sifatida qadrlashadi. Zehni o'tkir bolalarga toifali pedagoglar tahsil berayotgani esa bog'chaniq intellektual jihatdan anchagina yuqori ekanligini izohlay oladi.

## "VELOSIPEDDAN YIQILMASLIK MUHIM"

Hayot imkoniyatlar uchun yaratilgan. Qay darajada imkoniyatlardan foydalana olishingiz esa yolg'iz sizga havola. Bu hayot harakatlardan iborat, xuddi velosiped boshqaruvdagi inson kabimiz. Bir zum harakatdan to'xtasak, yiqilish mumkin. Harakatsiz esa velosiped uchish imkonsiz. Hilola Eshquvvatovaning "velosipedi" muntazam harakatda. U Termiz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti sifatida ilmni oshirmoqda. Bolajon rahbarning tashabbuslariga zarracha ilmiy izlanishlari xalal bermayotganligi esa faoliyatining samarasida yaqqol ko'rinadi. Qolaversa, yaxshigina poliglott qahramonimiz til o'rganishda ham shaxsiy rekordini yangilashni kanda qilmaydi. Avvaliga shaxsiy ehtiyoj sabab rus tilini o'rgangan Hilolaga ingliz tili ilm tili sifatida ko'rindi. Shekspir tilini mukammal o'rganib, til bilish sertifikatini ham qo'lga kiritdi. C1 darajadagi sertifikat tinib-tinchimagan, muntazam izlanishdagi qahramonimiz uchun kutilgan-kutilmagan natija emasdi. U bu yutuqni shunchaki hayot pillapoyasidagi bir odimlash sifatida qabul qildi.

Termiz tumanidagi maktabgacha

maqsad qilgan Hilola Eshquvvatova rejalashtirilgan kun tartibida til o'rganish uchun ham alohida vaqt ajrata olgan zamonaviy ayol, istiqbolli rahbar sifatida tasavvur uyg'ota oladi.

Hilola Eshquvvatova kitob mutolaasidan ham chekinmaydi. U filolog ekanligini zarraki unutgan emas. Rahbarlik mas'uliyatini his etgan holda adabiyotga o'zgacha mehr bilan boqadi. Dostoyevskiy, Stendal, Paulo Koelo, Jeyms Klir, Ernest Heminguey singari jahon adabiyotining nodir namunulari ijodkorlarini alohida muhabbat bilan mutolaa etadi. "Atom odatlar"dan tortib "Alkimyogor"ga qadar sohir qalam sehididan sarmast u. Yaxshigina kitobxonligi bo'is istalgan mavzuda soatlab suhbat qura olasiz. Yana Hilolani yaxshigina taniyidiganlar "xobbilar qirolichasi" deb ta'kidlaydi. Qiziqishlari olamjahon qahramonimiz tangalar kolleksiyasiga ega. Qolaversa, kitob mutolaasi, til o'rganishni xobbi sifatida sanamaydi ham, uni hayotining ajralmas qismi deb biladi. Xorijiy tillardagi qo'shiqlarni xirgoyi qilish ham uning hayotini zavqqa to'ldiradi. Shunga qaramasdan, Hilola hali orzu-maqsadlarining 20 foizigagina erishganligini aytadi. Endi tasavvur qilavering, yuz foizlik natijalar ko'zga tashlanar ekan, Hilolani butkul qayta kashf etasiz!!!

**Xurshid KARSHIYEV**

# TASHABBUS ORZULAR QANOT YOZADIGAN KUN

**Mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida yoshlar masalasi shunchaki ijtimoiy yo'nalish emas, balki davlat siyosatining ustuvor poydevoriga aylandi.**

Prezidentimiz tashabbusi bilan haftaning har payshanba kuni — "Yoshlar kuni" deb e'lon qilinishi yurtimizdagi barcha bo'g'indagi rahbarlar uchun o'ziga xos sinov va imkoniyat maydoniga aylanayotir. Endilikda vazirliklar, idoralar va hokimliklar rahbarlari kabinetlardan chiqib, bevosita mahalla, maktab va texnikumlarga yo'l olmoqdalar.

Bu jarayonning mohiyati shundaki, yoshlarning muammosi joyida ta'lim, takliflari eshitiladi va eng muhimi — yechim uzoq kuttirmaydi. Payshanba — bu shunchaki kalendar sanasi emas, balki yoshlarning dardi tinglanadigan, iqtidori rag'batlantiriladigan va orzulari uchun yo'l ochiladigan kundir. Yoshlar bilan muloqot davomida belgilab berilgan ustuvor vazifalar

yoshlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi: **Sifatli ta'lim va chet tillari:** Jahon bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash; **Raqamli texnologiyalar:** IT sohasini yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylantirish; **Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash:** Yoshlarning biznes g'oyalari uchun moliyaviy "qanot" berish;

**Sport va madaniyat:** Iqtidorni namoyon etish uchun keng maydon yaratish. Hurmatli Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, yoshlar — Yangi O'zbekistonning haqiqiy bunyodkorlaridir. Bugun yaratilayotgan sharoitlar, bildirilayotgan yuksak ishonchga munosib javob berish endi navqiron avlodning o'z qo'lida. Biz yoshlarimizga

ishonamiz, chunki ular — mustaqil fikrlaydigan, irdali va Vatani taqdiri uchun mas'uliyatni his qiladigan kuchdir. Uchrashuv shunchaki muloqot bo'lib qolmadi, u yangi marralar sari dadil qadam, millat kelajagi uchun tashlangan mustahkam poydevor bo'ldi. **Dilbar NORMURODOVA,** Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi raisi

# SAHNANING "SANCHIG'I" TUTSA... YOXUD TANLOVNING "TARNOVI" DAN KO'ZYOSHLAR OQMOQDA

**Turon teatri (yoki "Turon" truppassi) 1913-yilda Toshkentda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan tashkil etilgan bo'lib, u shunchaki ko'ngilochar maskan emas, balki ulkan ijtimoiy-siyosiy loyiha edi.**



Jadidlarning teatrni "ibratxona" deb atashgani bejiz emas. Darhaqiqat, bu ibratning ortidan millat uyg'onadi, tanazzulga yuz tutayotgan jabhalarga taraqqiyot nafasi purkaladi. Ommani savodxonlikka, madaniyatga va zamonaviy dunyoqarashga undash maqsadida tashkil etilgan teatrning bugun iste'dodlarni kashf etuvchi tanlovga aylanishi ham ezgu qarashlarni ifoda etadi. Biroq aslida ham tanlov iqtidorlarning saragini sarakka, puchagini puchakka chiqarmoqdami?! Yoki eskicha dogmalarga tayanib qolgan, tanqidlarga chidamsiz ko'rkona muhit bardavommi?!

## SAHNA ADOLAT KO'ZGUSI EDI

Munavvarqori Abdurashid-xonov, Abdulla Avloniy kabi jadidlar yetakchilik qilgan truppalarning shiori teatr orqali "millatning ko'zini ochish" edi. O'z davrida xalq uchun ham maktab, ham minbar, ham siyosiy markaz vazifasini o'tagan teatrlarning tanlov holati qanchalik munosib izdosh?!

Teatr — insoniyat kashf etgan eng buyuk tarbiya vositalaridan biri. U shunchaki tomosha emas, balki jamiyatning og'riqli nuqtalarini ko'rsatuvchi, haqiqat va adolatni tarannum etuvchi muqaddas dargohdir, — deydi san'atshunos Aziza Tursunova. — "Turon maktab teatri" tanlovi ham o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olamini boyitish, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish uchun ulkan imkoniyat sifatida maydonga chiqdi. Biroq, afsuski, so'nggi paytlarda bu ezgu loyihaning quyi bosqichlarida kuzatilayotgan "sahnaorti o'yinlari" va adolat-sizliklar san'atsevar yoshlarning ishtiyogiga sovuq suv sepmoqda.

Nohaqlikning ko'rinmas zanjiri: tanish-bilishchilik va "buyurtma" g'olibliklar tanlovning nufuzini tushirishi kunday ravshan. Tanlovning Termiz tumani bosqichi o'z gacha hayajon hamda zavq bilan o'tadi. Ayniqsa, joriy yildan tanlovni o'tkazish yangi tashkil etilgan "Kelajak" markazlari zimmasida ekanligi esa ayni kelajak avlodni vatanparvarlik hissi bilan tarbiyalashni ustuvor vazifa deb biluvchi markaz uchun muhim tashabbus desak, mubolag'a bo'lmaydi. Markaz bergan ma'lumotlarga ko'ra,

Termiz tumanidagi tanlovni tashkil etish, uning yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish bo'yicha Surxondaryo viloyati "Kelajak" markazi direktorining o'rinbosari Ilhom Djo'rayevga yuklatilgan bo'lib, Termiz tumanidan tuman MMTB bosh mutaxassisi A.Qurbonmurotov hamda tuman "Kelajak" markazi direktori vazifasini bajaruvchi A.Pardayevlar mas'ul etib belgilangan.

Tanlovning sektor va tuman bosqichlarida ishtirok etgan ko'plab pedagoglar va o'quvchilarning fikricha, g'oliblik ko'pincha ijro mahoratiga emas, balki "status"ga qarab belgilanmoqda. Yana bir ajoyib jihat esa tuman MMTB boshlig'i tasdig'i bilan tarqatilgan kalendar rejaga muvofiq tanlovning sektor bosqichidan faqat bittadan jamoa tuman bosqichiga o'tkazilishi belgilangan. Tumanning "Do'stlik" hududidagi tanlov 14-maktabda tashkil etilgan, "Yangiariq" hududidan 35-maktab, Namuna hududidan 8-maktab, "Uchqizil" hududidan 1-maktablar tanlov o'tkaziladigan manzil sifatida belgilab olingan. Natijalar yanada hayratlanarli — qaysi maktabda bo'lsa, o'sha maktab g'olib bo'lgan. Buni izohlaydigan pedagoglar esa:

— Termiz tumanida qaysi maktabda tanlov o'tkazilsa, albatta, o'sha maktab xarajat qiladi, banner, hakamlar uchun tushlik, ularning yo'lkirasi va hokazo, — deydi ismini sir tutishni ma'qul ko'rgan pedagog. — Gohida ularning qanday chiqishi, iste'dodi, tayyorgarligi ham ahamiyatsiz. Shu sababli ham tanlovlarda ishtirok etishni istamaymiz.

**"TURON MAKTAB TEATRI" TANLOVIDAGI "SOYA" LAR**  
"Tanlangan" maktablar haqidagi pichir-pichirlar esa Termiz tumani uchun begona emas: Ayrim hududlarda qaysi maktab g'olib bo'lishi tanlov boshlanmasidan oldin "hal qilib qo'yilayotgani" haqidagi gap-so'zlar bolalar qulog'iga ham yetib bormoqda. Bu esa raqobat muhitini o'ldirmoqda. — Tanlovning maktab bosqichi oktyabr oyida o'tkazilgandi. Jamoa rahbarimiz iste'dodli yoshlar bilan muntazam mashg'ulotlar olib borib, tanlovga qizg'in tayyorgarlik ko'rsatgan, — deydi X.Qulto'rayev.

— O'tgan yili ikki nafar o'quvchimiz krossovka kiyganligi uchun bizga o'rin berishmagandi. Bu yil esa tanishtiruv shartida "she'riy chiqmaganligimiz" uchun balmizni pastlatib qo'yishdi.

O'quvchining "aybi" o'ziga ko'rinmaydi. Hakamlar hay'atining zukkoligi shu o'rinda yordamga keladi. Termiz tumani bosqichini kuzatar ekanman, hakamning sektor bosqichida ham hakam bo'lganligi, o'sha jamoalar bilan tuman bosqichiga qadar qo'ng'iroqlashib turganligi haqidagi samimiy so'zlarini menida shubhaga soldi. Nima uchun u aynan o'zi hakamlik qilgan va tuman bosqichiga yo'llanma bergan jamoalarga yuqori ball qo'yimoqda?!

Hakamlar hay'atining "nomutaxassisligi" ba'zida o'ng'aysiz holatdir. Hakamlar hay'atining yosh vakili bilan suhbatlashar ekanmiz, u hatto nima uchun past ball qo'yganligini ham to'laqonli izohlab, isbotlab bera olmadi. "Bizning maktab" shartida 6 daqiqa davomida maktab yutuqlarini badiiy, sahnaviy, ko'rgazmali tarzda namoyish etishi" tanov nizomida belgilanganligi rost, lekin hakamning noo'rin e'tirozi kulgungizni qistatadi: "badiiy deyilgan nizomda, demak, she'riy chiqmadi ular, shu sababli balini tushirdim".



**Namanganlik hamda termizlik jamoalar: libos, banner, ishtirokchilar nutqidagi she'rlar, ketma-ketlik, hattoki davomiylik ham bir xil...**

Sahna nutqi, aktyorlik mahorati, dekoratsiya va asar g'oyasini tahlil qila olmaydigan, san'atdan yiroq kishilarning hakamlik kursisiga o'tirishi — tanlovning eng katta fojiasidir. Ammo sohasi, kasbi san'atkor-u so'zning mohiyatini bilmaydigan kishi bilan hazrat Navoiy aytgan "so'zning guhari"ni aytib tortishmoqlik xayrsizdir. "Badiiy" so'zining ma'nosini bilsangiz-da, e'tirozning peshonamni shoda-shoda terga solgani bo'sisini anglashingiz uchun so'z izohini batafsil bermoqqa chog'landim:

"Badiiy so'zi voqelikni nafis san'at vositalari, usullari, obrazlari orqali ifoda etuvchi; tasvirluvchi deganidir. Badiiy adabiyot. Badiiy asar. Badiiy san'at. Badiiy film, badiiy tasvir, badiiy tafakkur va hokazo. Endi hakam sari borsak, she'riy adabiyot, she'riy asar, she'riy san'atga ham chidash mumkin, ammo she'riy film ortiqcha-da... Eng yomoni nima?! Eng yomoni hakamning rejissyor ekanligi..."

Hakamlar gohi asarning badiiy qiymatiga emas, balki liboslarning yaltir-yultiriga yoki chiqish qilayotgan jamoaning rahbari kimligiga qarab baho bermoqdalar. Yana bir haqli e'tiroz tumanning 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi badiiy (she'riy) jamoasi o'tgan yilgi mavsumning respublika bosqichida muvaffaqiyatli ishtirok etgan namanganlik tengdoshlarining sahnaviy chiqishlarini hatto liboslari, so'zlar ketma-ketligi, qo'shimcha effektlar, musiqaviy sayqal-largacha birga-bir foydalan-ganligi... Bu haqida ogohlantirib, e'tiroz bildirgan kishini tuman bo'yicha mas'ul "shantaj" deya "og'ziga urganligi", tanlov nizomiga ko'ra apellyatsiya jarayonida "Tanlov natijalaridan norozi bo'lgan ishtirokchilar yakun e'lon qilingandan so'ng 15 daqiqa ichida Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi shart" ekanligi

shu sohada oz bo'lsa-da bilimga ega bo'lgan hamma aytdi, hatto tadbir tugagunga qadar barcha jamoalar tan berib o'tirgan edi, — deydi Shahodat Choriyeva.

Ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari tanlovning Angor tumani bosqichidan keyingi murojaatlar bo'yicha bildirilgan rasmiy munosabatni o'qib bir narsa anglashiga ham shubha bor: "Turon" maktab teatri tanlovining Angor tuman bosqichida tumandagi 47 ta maktab ariza topshirgan bo'lib, ular dastlab 4 ta sektor kesimida saralash bosqichlarida bellashgan. Saralash yakunlariga ko'ra, 14 ta maktab jamoasi tuman bosqichida ishtirok etgan.

Tanlov nizomida belgilangan mezonlar asosida hakamlar hay'ati tomonidan sahna madaniyati, ijro mahorati, mavzuning ochib berilishi hamda jamoaviy chiqish kabi ko'rsatkichlar baholangan. Ta'kidlash joizki, tanlov jarayonlari belgilangan tartib va nizom asosida o'tkazilgan. **BILDIRILGAN MUHOJAT YUZASIDAN BARCHA MASALALAR TANLOV NIZOMI VA TEGISHLI TARTIBLAR DOIRASIDA KO'RIB CHIQILADI**.

Qachon?! Qachon ko'rib chiqiladi?! Nizomga ko'ra 1 soat-da deyilgan bo'lsa, Termiz tumanidagi mas'ul singari vazifasiga sovuqxonlik bilan qarab, apellyatsiya shikoyatini qabul qilmasa, e'tiroz bildirgan o'quvchilarni ichki ishlar bo'limiga topshirib yuborishi haqida po'pisa qilsa...

## IJODIY BO'G'ILISH

"Turon maktab teatri" da barcha maktablar uchun sharoit bir xil emas. Markazdagi imkoniyati keng maktablar qimmatbaho tarixiy liboslar, professional pardozchi (grimyor) va dekoratsiyalar bilan sahnaga chiqayotgan bir paytda, chekka qishloqdagi iste'dodli bolalar o'z imkoniyatlarini darajasida tayyorgarlik ko'rmoqdalar.

Eng achinarlisi, hakamlar ko'pincha ichki dard va mahoratni emas, balki "tashqi yaltiroqlik"ni ustun qo'yimoqdalar. Bu esa san'atni moddiy boylikka almashtirish bilan barobardir. Ishonassizmi-yo'qmi, tanlov so'ngida ishtirokchilar do'st bo'lishmayapti, bir-biriga nafrat ko'zi bilan qarayotir. Hattoki mas'ullar e'tiroz bildirgan jamoa rahbariga, o'quvchilarga

yovqarash qilayotgani kabi. Bu kabi tanlovning zararlari sanoqli, ammo zararli...

Teatr sahnasida adolat va haqiqat uchun kurashayotgan qahramon rolini o'ynagan o'quvchi, sahnadan tushgach, o'z ko'zi bilan nohaqlikka guvoh bo'lsa, uning qalbidagi ishonch parchalanadi. Bolada: "Baribir tanish-bilish hal qilar ekan", degan noto'g'ri tushuncha shakllanadi. Haqiqiy qobiliyat egalari tanlovdan ko'ngli qolib, san'at yo'lidan qaytishi esa millat uchun katta yo'qotishdir. Shuningdek, tanlovning eng muhim salbiy ta'siri — yolg'onchilikka o'rgatishdir. Ma'naviyat darsi berishi kerak bo'lgan tanlov, bilmasdan bolalarga "g'alaba uchun har qanday yo'l halol" degan tushunchani singdirmayaptimi? Bola kimningdir ijodiy ishini o'zini qilib ko'rsatishdan, plagiatdan top tortmay ulg'ayishi aslida uyat...

Butun dunyo kreativlik haqida bong urayotganida shunchaki ko'chirmakashlik ortidan o'nlab original g'oyalarni chilparchin qilib, tanlovda g'olib bo'lise — bu eng katta zarbadir. Zersh, san'atshunoslar asarni tahlil qilayotganda quyidagi 3 savolga javob izlaydilar:

O'xshashlik darajasi (Substantial Similarity): Ikki asar o'rtasidagi o'xshashlik tasodif bo'lmas darajada yuqorimi?

Imkoniyat (Access): "Ko'chirgan" shaxs asl asarni ko'rishi yoki eshitishi mumkin bo'lganmi?

Transformativlik: Yangi yaratilgan asar asl nusxaga yangi ma'no, xabar yoki estetik qiymat qo'shdimi?

Mening kuzatishimcha, Termiz tumanidagi tanlov natijasi birtomonlama, dogma! Esiz, ishtirokchilarning ko'zyoshlari, esiz, iste'dod va original g'oyalar...

"Turon maktab teatri" tanlovi — bu bolalarimizning qalbiga ekilgan yaxshilik urug'idir. Bu urug'ni adolatsizlik va tanish-bilishchilik zahri bilan quritib qo'yishga hech kimning haqqi yo'q. Sahnadagi adolat — jamiyatdagi adolatning kichik bir modelidir. Keling, bu ko'zguni pokiza saqlaylik!

**Bo'lajak AKTYOR**

# ASIRLIKKA ELTUVCHI "ASR VABOSI" OGOHLIK

**Insoniyat taraqqiyoti qanchalik idamlamasin, ayrim illatlar borki, ular ham hamnafas ravishda o'z qiyofasini o'zgartirib, jamiyat tomiriga bolta urishda davom etmoqda.**

Shulardan eng xatarlisi — gijohvandlikdir. Bugun bu illat shunchaki tibbiy muammo emas, balki millat genofondini yemiruvchi, oilalar baxtiga xavf soluvchi va iqtisodiyotga ulkan zarar yetkazuvchi global xavfga aylandi.

**RAQAMLAR ORTIDAGI FOJIA**  
O'zbekistonda oxirgi besh yillikda kuzatilayotgan statistik ko'rsatkichlar har qanday kishini sergak torttiradi. Raqamlarga nazar tashlasak, vaziyatning jiddiyligi yaqqol namoyon bo'ladi:

**Narkojinoyatlar:** Oxirgi 5 yilda 2 barobarga ortganligi vaziyat jiddiylashganligini izohlay oladi.

**Musodara qilingan moddalar:** Umumiy gijohvandlik vositalari 8,5 barobarga, sintetik vositalar esa hayratlanarli darajada — 400 barobarga ko'paygan.



**Dispanser nazorati:** Bugungi kunda 8,5 mingga yaqin fuqaro narkologik bemor sifatida ro'yxatda turibdi. Bu ko'rsatkich ham so'nggi yillarda ikki barobardan ziyodroqqa oshgan.

## SINTETIK OG'ULAR — YASHIRIN QOTIL

Ayniqsa, "sintetika" deb ataluvchi sun'iy kimyoviy moddalarning yoshlar o'rtasida tarqalayotgani eng achinarli holatdir. Ular an'anaviy gijohvandlik vositalaridan ko'ra arzonroq, lekin insoni ruhiyati va jisimga yetkazadigan zarari bir necha barobar kuchliroqdir. Bir marta iste'mol qilishning o'ziyoq insonni umrbod nogironlikka yoki aqliy zaiflikka yetaklashi mumkin.

## DAVLAT VA JAMIYAT ZIMMASIDAGI MAS'ULIYAT

Gijohvandlik nafaqat shaxsning o'zini, balki davlat byudjetini ham og'ir yuk ostida qoldiradi. Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bir nafar narkobemorni davolash uchun davlat byudjetidan yiliga 60 million so'mgacha mablag sarflanmoqda. Bu mablag'lar aslida ilm-fan, ta'lim yoki ijtimoiy himeyoga yo'naltirilishi mumkin edi.

Hukumatimiz tomonidan ushbu illatga qarshi kompleks chora-tadbirlar belgilanmoqda, qonunchilik takomillashtirilyapti. Biroq, faqat huquq-tartibot idoralari kuchi bilan bu baloni yengish mushkul. Har bir mahalla, maktab va ota-ona o'z farzandining xulq-atvori va davrasiga e'tiborli bo'lishi shart.

Gijohvandlikka qarshi kurashish faqat mutaxassislarining emas, balki har bir vijdonli fuqaroning burchidir. Yoshlarimizni bu botqoqdan asrash — kelajagimizni asrash demakdir.

**Akmal BABAYAROV,**  
Denov tuman adliya bo'limi YXKM boshlig'i

**MUTAXASSIS MINBARI**  
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borayotir.

# RAQAMLI DAVR KELDI

Raqamli transformatsiya jarayoni kutubxonalar faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sharoitda kutubxonachilarning kasbining mazmun-mohiyati ham o'zgarib, yangi talab va vazifalar yuzaga kelmoqda.

Kutubxonachilar endi elektron kataloqlar bilan ishlash, ma'lumotlar bazasini muloqot qilish, onlayn xizmatlarni tashkil etish kabi vazifalarni bajarimoqda. Shu bois, raqamli savdonxilik zamonaviy kutubxonachining asosiy kompetensiyalaridan biriga

aylandi. Raqamli davrda kutubxonachilarning axborot vositachisi sifatida faoliyat yuritishi. U foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni topishda yordam beradi, axborot manbalarini saralaydi va ulardan samarali foydalanishni o'rgatadi. Shuningdek, kutubxonachilar ijtimoiy tarmoqlar orqali kutubxonalar bilan muloqot qilish, onlayn tadbirlar va vebinarlar o'tkazish kabi vazifalarni ham bajaradi. Bundan tashqari, chet tillarini bilish va xalqaro axborot resurslaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb

etadi. Raqamli davr kutubxonachilar oldiga bir qator muammolarni ham qo'yimoqda. Biroq bu muammolar kutubxonachilarning kasbining ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, axborot oqimi juda katta bo'lgan sharoitda ishonchli manbani topish va saralashda kutubxonachining roli yanada ortadi.

**Diifuza ALIQULOVA,**  
Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat Axborot-kutubxona markazi Ilmiy-metodika xizmati bosh mutaxassisi

Аллоҳ таоло Куръони каримда марҳамат қилади: "Рамазон ойи – одамлар учун ҳидоят, тўғри йўл ва ҳақ билан ноҳақни ажратувчи аниқ ҳужжатлар бўлган Куръон ноҳи қилинган ойдир" (Бақара сураси, 185-оят). Демак, Рамазон – Куръон ойи, тиловат ойи, тафаккур ойи, қалбни нурлантириш ойдир.

Рўза исломнинг беш устунидан бири бўлиб, у инсонни тақвога, сабрга ва масъулиятга чорлайди. Аллоҳ таоло марҳамат қилади: "Эй иймон келтирганлар! Сизлардан аввалгиларга фарз қилинганидек, сизларга ҳам рўза фарз қилинди.

мукофотини бераман. Рўза дўзахдан қалқондир. Рўзадор оғзининг ҳиди Аллоҳ наздида мушкнинг ҳидидан хушбўйроқдир. Агар бирингизга рўзадор ҳолида бир жоҳил жоҳиллик қилса мен рўзадорман десин" (Имом Термизий ривояти).

Бу муборак ойда мамлакатимизда меҳр-мурувват, саховат ва шукроналик муҳити янада кучаяди. Жорий йилда ҳам юртимизда Рамазон ойини муносиб ўтказиш масаласига алоҳида эътибор қаратилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралда қабул қилинган "Муборак

мояга муҳтож тоифадаги оилаларга 1 миллион сўмдан, камбағал ва кўшимча рўйхатдаги эҳтиёжманд оилаларга 500 минг сўмдан бир марталик моддий ёрдам кўрсатиш белгиланди. Шунингдек, ижтимоий реестрдаги оилаларнинг 6 минг нафар бемор аъзоси даволаниши ва жароҳлик амалиёти харажатлари қоплаб берилиши кўзда тутилди. Ушбу тадбирларни молиялаштириш учун 800 миллиард сўм маблағ ажратилиши белгиланди. Бу чора-тадбирлар Рамазон ойининг асл моҳияти – муҳтожнинг ҳолидан хабар олиш,

**BUGUNNING GAPI**

камолот мактабидир.

Рамазон оилаларда ҳам тарбия, ҳурмат ва тотувлик муҳитини мустаҳкамлайди. Бир дастурхон атрофида сахарлик ва ифторлик қилиш, катталарга хурмат, кичикларга иззат кўрсатиш, кўни-кўшнига таом улашиш, кексалар ва беморлар ҳолидан хабар олиш каби қадриятлар ушбу ойда янада ёрқин намоён бўлади. Бу эса миллий қадриятларимиз билан диний фазилатларимиз

**ХОНЖИЗАДАН ТАРАЛГАН МАЪРИФАТ НУРИ**

YAXSHILAR YODI

**Буюк аждодларимиз ҳаётини ўрганиш, улар қолдирган илмий меросдан инсон манфаатларига хизмат қилувчи ўғит ва гоёларни халқимизга етказиш ҳар бир давр тадқиқотчиларининг муҳим вазифаларидан бири бўлиб келган. Сурхон воҳсининг шимолий ҳудудлари — ҳозирги Сарийоғи туманининг Хонжиза қишлоғида яшаб ижод қилган шоирлардан бири Сўфий Ҳисорий Хондизағий ҳисобланади.**

**Сўфий Хондизағий ўз замонасининг буюк шоирларидан бири сифатида эътироф этилган. У киши илм, ирфон ва ахлоқ фазилатлари жиҳатидан маънавий етакчилар сафида намоён бўлган. У кишининг ҳаёти фақат китоблар ва маърузалар билан эмас, балки амалиётдаги ибрат, зоҳидона ҳаёт тарзи, фидо-корона меҳнат ва гўзал хулқ-атвори билан безалган эди. Сўфий ҳазратнинг шахсиятини ажратиб турувчи асосий фазилатлардан бири — унинг хоки-сорлиги эди.**

У киши ҳар қанча билимли ва мутафаккир бўлмасин, ҳеч қачон ўзини бошқалардан устун деб билмаган, балки ҳаммага таҳаммул, мухаббат ва самимият билан муносабатда бўлган. Сўзда доимо камтарлик, кўнгилда эса таслимият ва тақво қарор топган эди. Шу боис ҳам илм аҳли ва ихлосмандлар уни юксак ҳурмат билан тилга олар, ундан насиҳат сўраб, дуо тилар, маънавий раҳнамо сифатида билар эдилар.

Ҳозирги кунда глобаллашув, технологиялар тараққиёти ва маданий алмашинув жараёнлари даврида миллий қадриятларимизни асраб қолишда Сўфий ҳазратга ўхшаган шоирларимизнинг илмий асарлари ва таълимотига бўлган эътибор янада муҳим аҳамият касб этмоқда. Сўфий Хондизағий каби буюк шоирларнинг асарлари ва уларнинг ижтимоий-маърифий фаолиятини ўрганиш орқали биз ўз тарихимиздан илҳомланиб, мураккаб замонларда ҳам маънавий барқарорликни сақлаб қолиш имконига эга бўлаемиз.

Сўфий Хондизағий — ўхшаши кам, ўз даврининг буюк уламоси ва маърифатпарвари сифатида тарихда чуқур из қолдирган шахс. У зотнинг ҳаёти ва илмий мероси орқали биз нафақат унинг шахсий фазилатлари ва амалий ибратларини, балки умуммиллий таълим, маърифат йўли, ахлоқ ва руҳий камолот ҳақида ҳам бой маълумотларга эга бўламиз.

Одатда кўпчилик уламолар ва маърифатпарварлар илк таълим-тарбияни оила муҳитида, яъни ўз уйларида оладилар. Чунки фарзанднинг илк тарбияси ва таълими унинг оиласида, айниқса, ота-онанинг меҳр ва эътибори остида шаклланади.

Сўфий ҳазратлари ҳам ана шу анъанага амал қилган ҳолда илк таълимни оила муҳитида, яъни ўз ота-оналари ҳузурда олганлар. Ул зотнинг оталари — Домулло Абдулвоҳид диний-маърифий ва замонавий билимга эга бўлиб, ўз даврида илм-маърифат, таълим ва тарбияда етакчи мураббий сифатида танилган эдилар.

Кейинчалик Сўфий ҳазрат ўша даврнинг мутабар устозлари ҳузурда тахсилни давом эттирганлар.

Ислом оламида ўз ўрнига эга бўлган буюк муфассир, моҳир хатот, илм ва маърифатнинг суяк-ли фарзанди, нақшбандия тариқатининг йирик намояндаси — Сафар Халифа ҳазратлари ҳаёти, илмий мероси ва юксак маънавияти билан юртимиздаги бошқа аждодларимиз каби ўчмас из қолдирган зотлардан ҳисобланади. Халифа Сафар ҳазратларининг шоигирдлари орасида нафақат юксак илми билан балки халқ қалбида чуқур ўрин эгаллаган, исломий ахлоқни ҳаётида татбиқ қилган, камтар ва солиҳ инсонлар кўпчилигини ташкил қилган. Уларнинг орасида Сўфий номи билан танилган салоҳиятли шоигирд ҳам бор эди. Устоз ва шоигирдлар ўртасидаги бу маънавий боғланиш, илмни қадрлаш анъанаси юртимиздаги диний-маърифий мероснинг ажралмас қисми бўлиб қолди.

Сўфий, Сўфий ҳазратлари тахсилни давом эттириш учун Денов шаҳридаги Саййид Оталиқ мадрасасига борганлар. Сўфий ҳазрат: Бу мадрасада сарф, наҳв, мантик, калом, фикҳ, тарбия ва исломий одоблар каби бошланғич илмларни ўрганадилар. Зехни ўткир, иқтидори баланд, билимга чанқок бўлгани боис, мадрасадаги талабалар орасида тезда эътибор қозонадилар. Хонжиза тоғли ҳудуд, яшаш шаҳарга қараганда қийин. Илм ўрганиш ҳам ўзига яраша бўлган.

Сўфий ҳазратлари мана шундай қийин шароитда яшаб ўсгани учун, шаҳар муҳитида тезда мослаша оладилар. Таълим жараёнида ҳам ўз ўрнини эгаллашга улгура оладилар. Буни сезган устозлар Сўфий ҳазратларини дарҳол одобли, садоқатли, илм олишдан, изланишдан чарчамайдиган талабалар қаторига қўшадилар. Устозлар мезонинда талабанинг одоби, сабри ва меҳнатсеварлиги муҳим ўрин тутарди. Бу нарсалар Сўфий ҳазратда шаклланиб бўлган эди.

Сўфий ҳазратлари Бухородаги мадрасада таълимоти давом эттирган. Таълим давомида араб, форс тилларини пухта ўзлаштириб, Куръони карим илми ва тафсири, ҳадис, муста-лаҳ-ул ҳадис, фикҳ, усул-ул фикҳ, мерос, мантик каби кўплаб фанларга кифоя қиладиган даражада илм ва маълумотга

эга бўлган. Сўфий ҳазратлари ҳаётининг асосий қисмини илм ўрганиш, шоигирдлар тарбиясига сарфлаганлар.

Хонжизалик адабиёт фидойиси Хусрав Саъдуллоҳ шоир шеърларини тўплаб, 2006 йилда "Жўшиши дарёйи дарс", (Дарс дарёсининг жўшиши) номи остида сермазмун сўзбоши билан Душанбе шаҳри, "Диваштич" нашриётида чоп эттирган. Ушбу китобда шоирнинг ҳаёти, илмий-ижодий фаолияти, илм йўлидаги сафарлари, устоз-шоигирдлари, оиласи, қариндош-уруғлари билан Душанбе шаҳри, "Диваштич" нашриётида чоп эттирган. Ушбу китобда шоирнинг ижодидан намуналар берилган.

Хулоса қилиб айтганда, Сўфий Ҳисорий Хондизағий ўз даврининг илм-маърифатга чанқок, юксак ахлоқий фазилатлари билан ажралиб турган шоир ва уламолардан бири ҳисобланади. У зот нафақат чуқур илм эгаси, балки камтарлик, зоҳидлик ва инсоний фазилатларни ўз ҳаётида амалда намоён этган маънавий етакчи сифатида ҳам халқ орасида катта ҳурмат қозонган. Унинг ҳаёти, илм олиш йўлидаги машаққатлари, устоз-шоигирд анъаналарига садоқати ҳамда шоигирдлар тарбиялашдаги ҳизматлари юртимизнинг бой диний-маърифий меросининг муҳим қисми бўлиб қолган.

Бугунги кунда глобаллашув ва замонавий жараёнлар шароитида Сўфий Хондизағий каби аждодларимизнинг ҳаёти ва илмий меросини ўрганиш, уларнинг ахлоқий ва маънавий қарашларини ёш авлодга етакчи халқимизнинг маънавий қадриятларини мустаҳкамлаш, илм-маърифатга бўлган ҳурматни ошириш ва жамиятда қиладиган бебаҳо манба бўлиб қолади.

**Оятуллоҳ АЙНИДДИН,**  
"Имом Термизий" ўрта махсус ислом таълим муассасаси ўқитувчиси

**РАМАЗОН — МАЪФИРАТ ВА МЕХР-МУРУВВАТ ОЙИДИР**



**Рамазон ойи ислом оламида энг улуғ, энг фазилатли ва энг баракали ойлardan биридир. Бу ой мўмин-мусулмонлар учун нафақат рўза тутиш, балки қалбни поклаш, нафсни тарбия қилиш, сабр-қаноатни мустаҳкамлаш, саховат ва мурувватни зиёда этиш ойдир. Шу боис Рамазон асрлар давомида мусулмонлар ҳаётида эзгулик, меҳр-оқибат ва ибодат фасли сифатида юксак қадрланиб келинмоқда.**

Шояд тақволи бўлсангизлар" (Бақара сураси, 183-оят). Демак, рўзанинг моҳияти фақат очлик ва чанқоқлик эмас, балки тилни ёмон сўздан, кўзни ҳаромдан, қалбни кибр ва ҳасаддан сақлаш, инсонни ички поклини сари етаклашдир.

Ҳар бир мўмин-мусулмон ушбу муқаддас ойда Аллоҳ томонидан инъом этилган сув, мева-чева ва озиқ-овқатларнинг қадрини ҳис қилиш билан беминнат неъмат эканлигини англайди. Бунинг натижасида инсон шукрли бўлиб қолади. Ваҳоланки, сабр ва шукр инсон ҳаётида жуда катта аҳамиятга эга! Бундан ташқари, рўзанинг яна кўплаб фойдалари бор. Жумладан, инсоннинг икки дунёда бахт-саодатга эришиши, дўзахдан нажот топиб, жаннатга киришига сабаб ҳамда энг катта омиллардан бири — тақвонинг ҳосил бўлишидир.

Абу Хурайра розияллоху анҳудан ривоят қилинади: "Расулulloҳ соллаллоху алайҳи васаллам айтдилар: "Албатта, Роббингиз айтди: "Ҳар бир яхшилик (саовоби) ўн баробаридан етти юз баробаригачадир. Рўза Мен учун ва Мен Ўзим унинг

Рамазон ойини муносиб тарзда ўтказиш тўғрисида"ги қарориде Рамазон ойини "меҳр-мурувват, аҳиллик ва шукроналик ойи" деган эзгу гоё асосида ўтказиш, кам таъминланган ва ижтимоий ҳимояга муҳтож инсонларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, маҳаллаларда ҳам-жихатлик ва адолат муҳитини мустаҳкамлаш, шунингдек, исрофгарчиликка йўл қўймасдан ихчам ва мазмунли тадбирлар ташкил этиш вазифалари белгилаб берилди. Жорий йилги Рамазон табригида ҳам давлатимиз раҳбари Рамазоннинг юртимиз учун меҳр-оқибат, хайр-у саховат ва шукроналик тимсоли сифатида таърифлаб, кексалар, ногиронлар ва ёрдамга муҳтож инсонлар ҳолидан хабар олишга алоҳида ургу бердилар.

Айниқса, 2026 йил 17 февралдаги "Муборак Рамазон ойида эҳтиёжманд аҳолини давлат томонидан ижтимоий қўллаб-қувватлаш чоралари тўғрисида"ги Президент қарори моҳиятан Рамазон ойидаги эзгулик тадбирлари амалий мазмун билан бойиётганини яққол кўрсатади. Мазкур ҳужжатга кўра, ижтимоий ҳи-

ночорга кўмак бериш, жамиятда саховат ва бирдамликни қарор топтириш — бугун давлат сиёсатида ҳам амалий ифода топаётгани кўрсатади.

Дарҳақиқат, Рамазон ойининг ижтимоий аҳамияти ҳам ниҳоятда каттадир. Рўза тутган инсон очлик ва чанқоқликнинг қадрини ҳис этади, эҳтиёжмандларнинг дардига янада яқин-дорқ бўлади. Натижада жамиятда меҳр-оқибат, кўмак, саховат ва ҳамжихатлик муҳити мустаҳкамланади. Шу маънода, бугун жойларда ўтказилаётган хайрия тадбирлари, кўнгли ярим инсонларнинг ҳолидан хабар олиш, маҳаллаларда ифторликларни тартибли ва камтарона ташкил этиш каби эзгу ишлар Рамазоннинг тарбиявий қудратини яна бир бор намоён этмоқда.

Рамазон ойида ибодатларнинг савоби янада ортади. Таровеҳ намозлари, Куръон тиловати, зикр-у дуо, садақа ва фитр каби амаллар мўмин қалбини нурлантиради. Айниқса, минг ойдан афзал бўлган Лайлатул қадр кечасининг шу ойда бўлиши Рамазоннинг фазилатини янада улуғлайди. Шу сабабли бу ой ҳар бир мўмин учун маънавий

нақадар уйғун эканини кўрсатади.

Бугунги шиддатли даврда Рамазон ойининг тарбиявий аҳамияти янада ортиб бормоқда. Чунки рўза инсонни интизомга, вақтни қадрлашга, нафс истакларини жиловлашга, ҳалоллик ва поклик билан яшашга ўргатади. Рамазон бизни нафақат ибодатга, балки яхши инсон бўлишга, бошқаларга фойда келтиришга, эл-юрт равнақи учун хизмат қилишга ундайди.

Азиз воҳадослар, муборак Рамазон ойини ғанимат биланлайлик. Уни фақат рўза тутиш ойи деб эмас, балки қалбни уйғотиш, виждонни кўпайтириш, жамиятда меҳр-оқибатни мустаҳкамлаш ойи деб қабул қилайлик. Зеро, Рамазон — Аллоҳга яқинлашиш, Куръон билан яқинлашиш, яхшилик ва инсонпарварликка яқинлашиш ойдир.

**Расулжон АБДУЛЛАЕВ,**  
Ўзбекистон Мусулмонлари идораси Сурхондарё вилояти вакили,  
Ҳақим Термизий жомеъ масжиди имом-хатиби

<p><b>SURXON TONGI</b> va <b>ЗАРА СУРХАНА</b> gazetalari tahririyati</p>	<p><b>MUASSISLAR:</b> Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi</p>	<p><b>TAHRIR HAY'ATI</b> Abduraim CHORIYEV (hay'at raisi) Ilhom SAPAROV, Ibrohim YOQUBOV, Murodбек DAVLATOV, Iqroriddin AYNIDDINOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV</p>	<p><b>Gazeta</b> 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.</p>	<p><b>BOSH MUHARRIR</b> Salohiddin NORQOBIDOV <b>MAS'UL MUHARRIR</b> Sayyora ALLAYEVA <b>NAVBATCHI MUHARRIR</b> Xurshid KARSHIYEV <b>SAHIFALOVCHI</b> DIZAYNER Dildora VOHIDOVA</p>	<p><b>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqyir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.</b> <b>Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</b></p>	<p><b>Gazeta "Surxon tongi" va "Zara Suxhana" gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etiladi.</b></p>
	<p><b>TELEFONLAR:</b> 76 224-23-85, 76 224-23-80, 76 224-23-87</p>	<p>Qog'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq Nashr indeksi: 6 500 Bosishga topshirildi — 09:00 Bosildi — 11:00 Adadi 6 859 nusxa. Buyurtma G-</p>	<p><b>MANZILIMIZ:</b> Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> <p><b>BOSMAXONA MANZILI:</b> Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p>			